O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-sonli qarori “doirasida hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash, madaniy meros va turizm obyektlarini obodonlashtirish, ularga olib boruvchi yo‘llarni ta‘mirlash, turistlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish”⁷ maqsadida Respublika byudjetidan 1 trln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

“2024-2026-yillarda mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning oqimini oshirish, iqtisodiyotda”⁸ “turizm industriyasining ulushini ko‘paytirish, jahon bozorida mamlakatimizning turizm salohiyatini targ‘ib qilish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, taqdim etiladigan turizm xizmatlari sifatini oshirish, sohani raqamlashtirish yuzasidan choralar ko‘riladi”⁹.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2019-yil yakuni bo‘yicha – 2,6%) va 2026-yil yakuniga qadar xorijiy turistlar sonini 9 milliongacha yetkazilishi, shu jumladan, uzoq xorijdan – 2 million turist jalb qilinishi belgilandi.

Shuningdek, qo‘shni mamlakatlarda O‘zbekistonning turizm salohiyatini targ‘ib qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, qo‘shni davlatlarning OAV vakillari va turistik tashkilotlari uchun mamlakatning chegaradosh viloyatlarida info turlar uyushtirish, qo‘shni davlatlarning o‘z tillarida targ‘ibot materillarini tayyorlab, ularning hududida joylashtirish, qo‘shni mamlakatlar uchun mamlakatimizda “Turizm oyliklari”ni tashkil etish choralari ko‘rilmoqda.

Mamlakatning turizm sohasidagi imidjini xorijda keng targ‘ib qilish maqsadida turizm sohasi bilan bog‘liq veb-sahifalarning tillar xilma-xilligini kengaytirish (xitoy, yapon, koreys, arab, fransuz, ispan, nemis va boshqa tillarda) va turizm salohiyatini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan videoroliklar turli xorijiy tillarda tayyorlanmoqda.

Xorijiy davlatlarda targ‘ibot loyihalarini olib borish uchun dastlab maqsadli bozorlarda marketing tadqiqotlari olib borilishi, o‘rganishlar natijasida, maqsadli davlatlarga mo‘ljallangan marketing konsepsiyasi ishlab chiqiladi va targ‘ibot ishlari tashkil qilinishi olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlardagi xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy stand bilan munosib ishtirok etish choralari ko‘rilib, mamlakatga xorijiy turistlar oqimi oshirilishining dasturi ishlab chiqildi.

Targ‘ibotda Digital Marketing va zamonaviy branding usullardan foydalanilishi va bu ko‘plab ko‘rgazmalarga

5 Stránka nenalezena - Panevropská univerzita

6 Агешкина Н.А., Бельянская А.Б., Холкина М.Г. Комментарий к Федеральному закону от 24 ноября 1996 г. N 132-ФЗ “Об основах туристской деятельности в Российской Федерации» (под ред. Л.Л. Руденко). - Специально для системы ГАРАНТ, 2017 г.

7 <https://base.garant.ru/403331451/1b93c134b90c6071b4dc3f495464b753/>

8 b b d c 1 4 4 9 8 3 6 9 d c 9 b 2 4 9 a 8 4 f 9 7 c 4 9 b e 8 6 _ % D 0 % 9 2 % D 0 % A B % D 0 % 9 F % D 0 % A 3 % D 0 % A 1 % D 0 % 9 A % D 0 % 9 D % D 0 % 9 0 % D 0 % A F % 2 0 % D 0 % 9 A % D 0 % 9 2 % D 0 % 9 0 % D 0 % 9 B % D 0 % 9 8 % D 0 % 9 8 % D 0 % 9 0 % D 0 % A 6 % D 0 % 9 8 % D 0 % 9 E % D 0 % 9 D % D 0 % 9 D % D 0 % 9 0 % 9 8 % D 0 % 9 1 % D 0 % 9 E % D 0 % A 2 % D 0 % 9 0 . p d f % D 0 % A F % 2 0 % D 0 % A 0 % D 0 % 9 0 % D 0 % 9 2 % D 0 % A B % D 0 % 9 F % D 0 % A 3 % D 0 % A 1 % D 0 % 9 A % D 0 % 9 D % D 0 % 9 0 % D 0 % A F % 2 0 % D 0 % 9 A % D 0 % 9 2 % D 0 % 9 0 % D 0 % 9 B % D 0 % 9 8 % D 0 % A 4 % D 0 % 9 8 % D 0 % 9 A % D 0 % 9 0 % D 0 % A 6 % D 0 % 9 8 % D 0 % 9 E % D 0 % 9 D % D 0 % 9 D % D 0 % 9 0 % D 0 % A 0 % D 0 % 9 0 % D 0 % 9 1 % D 0 % 9 E % D 0 % A 2 % D 0 % 9 0 . p d f

9 КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТУРИЗМА КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.



sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'larni ma'lum darajada tejash, ya'ni internet orqali onlayn targ'ibotni yo'lga qo'yish qisqa muddatda kerakli natijaga tezkorlik bilan erishish imkoniyatini beradi.

Mamlakatning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va vatandoshlar ko'magida dunyo miqyosida "O'zbekiston kunlari" promoaksiya tadbirlari muntazam tashkil qilinadi.

Maqsadli davlatlardan butun dunyoga mashhur san'at, kino, madaniyat sohalari yulduzlarini va sayohat yo'nalishida faoliyat olib boradigan tomoshabinlar qamrovi keng bo'lgan ommabop blogerlar hamda inflyuenserlar uchun mamlakat bo'ylab infoturlar tashkil qilish ishlari davom ettiriladi.

"O'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi maqsad va ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, turizm va unga aloqador sohalarda quyidagi yo'nalishlarda keyingi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Xalqaro normalar va standartlarni joriy etish. Iqtisodiy barqaror va farovon mamlakatlar fuqarolari uchun viza rejimini bosqichma-bosqich liberallashtirish, respublikaga sayyohlar oqimini ta'minlash, ushbu sohada tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, samarali boshqarish va turizm va madaniy merosni jamoat yo'nalishi bo'yicha joriy etish bo'yicha xorijiy tajriba -xususiy sheriklik bu sohada zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'rganiladi va joriy etiladi"¹⁰.

"Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiyotda turizm salmog'i, turizm xizmatlari eksporti va sifatining oshishi hamda turizmga namoyish obyektlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi"¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-sonli qaroriga ko'ra 102 ta eng zaruriy madaniy meros obyektlarining restavratsiya va konservatsiya qilishga – 211,9 mlrd.so'm, turizm va unga yondosh infratuzilmaga – 132,8 mlrd.so'm, yo'l infratuzilmasini yaxshilashga – 238,9 mlrd.so'm, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning kommunal xizmatlarini tashkil qilish va axborotlashtirish tizimini yaxshilashga – 90,1 mlrd.so'm, turizm sohasidagi ta'lim muassasalarini ta'mirlash, moddiy texnika bazasini mustahkamlashga – 326,0 mlrd.so'm miqdorida mablag'lar yo'naltirilishi belgilandi¹².

Transport logistikasi. O'zbekiston Respublikasining kirish turizm natijalariga aviakompaniyalarning cheklangan tanlovi, aviachiptalarning yuqori narxi, xizmatlar sifatining pastligi, mamlakat ichida intermodal tashuvlarning (avtobus, temir yo'l va aviatashuvlar) rivojlanmaganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning ushbu sohadagi moddiy-texnik jozibadorligini tubdan yaxshilash, xorijiy aviakompaniyalarni mahalliy aeroportlarga uchishga jalb qilish, xorijiy aviatashuvchilarga imtiyoz va preferensiyalarning moslashuvchan tizimini taqdim etish, charter reyslarini tasdiqlash mexanizmini soddalashtirish, mamlakatimizning qator aeroportlarida "ochiq osmon" rejimini joriy etish ijobiy natijalar bermoqda, aviakompaniya xarajatlarini kamaytirish va iste'molchilar uchun aviachiptalar narxini optimallashtirish.

"Doimiy tashqi va ichki yo'nalishlarda sifatli va maqbul tariflarda transport qatnovini yo'lga qo'yish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo'llarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, byudjet aviatashuvlarini tashkil qilish, xalqaro va respublika hududlari o'rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish, yangi temir yo'llarni qurish va mavjudlarini takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoyezdlardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan chora-tadbirlar"¹³ olib boriladi.

Infratuzilmani tartibga keltirish. "Zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko'cha infratuzilmasini (o'tish yo'llari, velo/piyoda yo'laklari, sanitar-gigiyenik shaxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun"¹⁴ to'siqsiz harakatlanish, turizm axborot ko'rsatkichlari va boshqalarni) tashkil qilish, axborot turizm markazlari sonini oshirish, turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiya qilingan tizimini joriy etish, yo'llarni ta'mirlash, madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish, internet tarmog'ini tashkil qilish, kommunal xizmatlarni yo'lga qo'yish choralarini ko'rish lozim.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar turistlarning qulay va erkin harakatlanish hamda ularni zaruriy axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Joylardagi infratuzilmaning holati (asfalt yotqizish, axborot-kommunikatsiya, elektr-energiya, suvoqova va boshqa masalalar) hududlarda turizm obyektlarini tashkil qilish, turizm namoyish obyektlariga sayyohlar

10 [bbdc14498369dc9b249a84f97c49be86_%D0%92%D0%AB%D0%9F%D0%A3%D0%A1%D0%9A%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A4%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf](https://library.samdu.uz/files/bbdc14498369dc9b249a84f97c49be86_%D0%92%D0%AB%D0%9F%D0%A3%D0%A1%D0%9A%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A4%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf)

11 Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida https://uza.uz/oz/posts/ichki-turizm-xizmatlarini-diversifikatsiya-qilishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-tog'risida_369542

12 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5048-сонли "“Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурларини амалга ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.Lex.uz.

13 УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан <https://lex.uz/ru/docs/4143186>

14 PF-5611-сон 05.01.2019. O'zbekis ton Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida



tashrifini uyushtirish, sohada tadbirkorlikni rivojlantirish va loyihalarga investorlarni jalb qilishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buning uchun mahalliy hokimliklar va mutasaddi tashkilotlarning javobgarligini oshirish hamda mahalliy va respublika byudjetidan mablag' ajratilishi talab etiladi.

Turizm sohasida tadqiqotlar va sohaga malakali mutaxassislar yetkazib berish. Turizm sohasida ham boshqa sohalar kabi kadrlar masalasi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 29 ta oliy ta'lim, 35 ta professional ta'lim muassasasida turizm sohasida kadrlar tayyorlanmoqda. Ularda ta'lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4 100 nafardan 7 600 nafargacha oshgan. "Shuningdek, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish hamda jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni"¹⁵ tayyorlash maqsadida O'zbekistonda 2018-yilda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tashkil etilgan edi. Hozirda mehnat bozori talabidan kelib chiqib, universitetda turizm, logistika, gid-tarjimonlik, muzeyshunoslik, arxeologiya, ijodiy sanoat, madaniy merosni boshqarish kabi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari sohaga o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash maqsadida vazirlik tizimidagi 6 ta texnikum va 4 ta kollejlarda-yiliga o'rtacha 2 mingga yaqin kadrlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Turizm sohasida kadrlar tayyorlaydigan o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro darajadagi raqobatbardosh kadr sifatida jahon standartlariga javob berishi asosiy muammolardan biri hisoblanib, kelinar edi. Prezidentimiz tomonidan Shveysariyalik mutaxassislar bilan birga, Buxoro, Zomin va Bo'stonliq turizm kollejlari mehmonxona boshqaruvi, servis va boshqa yo'nalishlarda yangi o'quv dasturlari asosida o'qitish, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida yiliga kamida 1 ming nafar yoshlarni o'qitishni tashkil etish, ushbu muammoning yechimini belgilab berdi. Xalqaro islom akademiyasi va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida ziyorat turizmi oqimi ko'p bo'lgan davlatlardan sayyohlarni keng jalb qilish maqsadida, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning integratsiyasini"¹⁶ yo'lga qo'yish, sohada ilmiy asoslangan xulosalarni dolzarbligini belgilashga xizmat qiladi.

2023-2024 o'quv yilgacha sohada kadrlar tayyorlovchi asosiy muassasa hisoblanuvchi "Ipak yo'li" "turizm va madaniy meros xalqaro universitetini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 talik ro'yxatiga kiritishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish"¹⁷, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va boshqa ta'lim muassasalarida sohaga zamonaviy kadrlar tayyorlashda liderlikni shakllantirish va 2024-yilgacha xorijiy xamkorlarni jalb etgan holda oliy ta'lim bilan integratsiyalashgan turizm sohasi kadrlarini tayyorlovchi kamida 2 ta turizm oliy maktablari tashkil etish rejalashtirilgan.

Ushbu sohadagi ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, innovatsiyalar sohasida malakali kadrlar tayyorlash hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mintaqalardagi ta'lim muassasalarida, turizm va tegishli sohalarida malakali mutaxassislarga talab yuqori bo'lib qolmoqda. Bu, o'z navbatida, sohada xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

"Turizm sohasida kasb-hunar ta'limi muassasalari yuqori sifatli kadrlar tayyorlash, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, amaliyotga yo'naltirilgan va modernizatsiya qilingan ta'lim standartlari, o'quv-uslubiy dasturlar va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm sohasi xodimlarini (gidlar, gidlar, kuzatuvchilar, turistik faoliyat sub'ektlari, ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqa xodimlar).o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

Ushbu yo'nalishdagi amaliy harakatlar ta'lim va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali menejer, administrator"¹⁸, oshpazlar va boshqa kasblarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

2023-2024-yillarda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarda turizm sohasiga oid tayanch doktorantura bo'yicha kvotalarni ikki barobarga oshirish, har yili sohada dolzarb bo'lgan innovatsion loyihalarning tematik mavzular portfelini shakllantirish choralari ko'rilmogda.

15 <https://www.peuni.cz/dokumenty/Proceedings-Conference-Post-COVID-19-Tourism.pdf> <https://www.peuni.cz/dokumenty/Proceedings-Conference-Post-COVID-19-Tourism.pdf>

16 [bbdc14498369dc9b249a84f97c49be86_%D0%92%D0%AB%D0%9F%D0%A3%D0%A1%D0%9A%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A4%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf](https://library.samdu.uz/files/bbdc14498369dc9b249a84f97c49be86_%D0%92%D0%AB%D0%9F%D0%A3%D0%A1%D0%9A%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A4%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf) https://library.samdu.uz/files/bbdc14498369dc9b249a84f97c49be86_%D0%92%D0%AB%D0%9F%D0%A3%D0%A1%D0%9A%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A4%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf

17 [NamDU-ARM-14915-NEW_HISTORY_OF_UZBEKISTAN.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/03/NamDU-ARM-14915-NEW_HISTORY_OF_UZBEKISTAN.pdf) https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/03/NamDU-ARM-14915-NEW_HISTORY_OF_UZBEKISTAN.pdf

18 УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан <https://lex.uz/ru/docs/4143186>



“Turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish. Yangi turizm va hunarmandchilik mahsulotlari mintaqalarning xilma-xilligi va jozibador va raqobatbardosh turizm mahsulotlarini, shu jumladan turli fasllarda mamlakat mintaqalarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratishni, shuningdek turizmning istiqbolli turlarini ziyorat, ta’lim, ekologiya, etnografiya, gastronomiya, sport, sog’lomlashtirish, qishloq xo’jaligi) hisobga oladi, sanoat, biznes va boshqalar”¹⁹.

Natijada, turistlarga turistik mahsulotlar etkazib berishning ko’payishi, sayyohlarning mamlakatda bo’lish muddatining uzaytirilishi, turistik xizmatlar eksportining ko’payishi va chet ellik sayyohlarning qayta kelishi kuzatiladi.

“To’siqsiz turizm”ni rivojlantirish. Mamlakatga kirish imkoniyati cheklangan mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun infratuzilma (madaniy meros ,aeroport, vokzallar va boshqalar.) tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Xorijiy tajribani o’rganish natijasida turizmning ushbu turini rivojlantirish va ushbu sohada kadrlar malakasini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada mahalliy va xorijiy sayyohlar soni ortib, turizm sohasida bandlik ta’minlanib, yangi ish o’rinlari yaratilmoqda.

Moddiy madaniy meros obyektlarini samarali boshqarish. Moddiy madaniy obyektning o’zgartirilishi mumkin bo’lmagan o’ziga xos xususiyatlarini va uning tarixiy muhitini saqlab qolish, obyektlarni muhofaza qilish va obodonlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, restavratsiya qilish, tuzatish, ta’mirlesh va zamonaviy boshqarish choralari ko’riladi. Mazkur choralar orqali moddiy madaniy obyektlardan samarali foydalanish, ularni kelajak avlodga yetkazish ta’minlanadi.

Sohaga axborot texnologiyalari (raqamlashtirish) joriy etish. Turizm sohasining raqamlashtirilishi xizmat ko’rsatuvchilarning biznes modelini va mijozlarning istaklarini o’zgartirmoqda. Turar joylar (masalan, AirBnB, Homeaway, Booking), transport (BlablaCar, Uber), umumiy ovqatlanish (EatWith) va gid xizmatlari (Tours By Local) bo’yicha yangi ishtirokchilar turizm bozoriga kirib keldi. Sohada internet tarmoqlarning mavjudligi (5G,Wi-Fi) va sun’iy intellekt allaqachon ko’plab mehmonxonalar tarmoqlari va turizm xizmatini ko’rsatuvchilar tomonidan tadbir qilinmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, onlayn platformalar joriy qilish, xizmat ko’rsatish sohasini o’zida mujassamlashtirgan mobil ilovalar yaratish, turizm obyektlarida internet tarmoqlarini tashkil qilish yuzasidan ishlar tashkil qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekistonga sayohat qil dasturi orqali sayyohlik va diqqatga sazovor joylardan foydalanish uchun keng ko’lamli ishlar qilinmoqda. Ichki sayyohlik harakatining mashhurligini jonlantirish, qo’shimcha turistik xizmatlarni yaratish va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o’tkazildi.”Dasturni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish va tabaqalashtirilgan sayyohlik ob’ektlarini rivojlantirish choralari ko’riladi. Ichki turizmga kelsak, oilaviy sayohat paketlarini qo’llab-quvvatlang va umumiy va kasb-hunar ta’limi dasturlariga turistik sayohatlarni kiritilgan.

Ushbu chora-tadbirlar mahalliy aholining tashrifini oshirish, mavsumiy omillarga bog’liqlikni kamaytirish, mehmonxonalar bandligini oshirish, ayniqsa yilning ishlamaydigan oylarida, mintaqalar o’rtasida sayyohlarning ichki oqimini kengaytirish va mintaqada mahalliy aholining bandligini ta’minlashga yordam beradi.

Ziyorat turizmni rivojlantirish. O’zbekistonda 8,2 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ziyorat turizmi yo’nalishida maqsadli bozorlarga kirib borish, ziyoratchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, Umra+ dasturini tashkillashtirish orqali turizm industriyasi bandligiga erishiladi.

O’zbekiston Respublikasining xavfsiz mamlakat sifatidagi obro’sini mustahkamlash, yagona milliy turizm brendini yaratish, shuningdek, har bir mintaqaning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mintaqaviy turizm brendlarini yaratish, milliy turizm mahsulotini turistik bozorlarga olib chiqish, imidjni targ’ib qiluvchi reklama va axborot kampaniyasini o’tkazish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi O’zbekiston Respublikasining chet eldagi elchixonalar orqali.

Yoshlar turizmni rivojlantirish. Ta’lim dasturlari bilan uyg’unlashtirgan holda yoshlarning sayohatlarini tashkil qilish, yoshlar uchun qo’shimcha turistik mahsulot va xizmatlar yaratish, hududlar kesimida tadbirlar rejasini ishlab chiqish, qo’shni mamlakatlar yoshlarini O’zbekistonga jalb qilish choralari ko’rish orqali yoshlar sayohati tizimli tashkil qilinadi va mamlakatimizdagi turizm, madaniy meros obyektlari to’g’risida yoshlar tegishli ma’lumotga ega bo’ladi.

Turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Turizm sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning tadbirlarida faol ishtirok etish, xalqaro standartlarni O’zbekiston turizm bozoriga kiritish, xalqaro turizm reytinglarida mamlakat o’rnini yaxshilash choralari ko’riladi. Mazkur choralar mamlakatimizning jahon hamjamiyatida nufuzini ortishi, turizm tadbirlarida ishtirok etishi va xorijiy investorlarning jalb etilishida ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

19 ПРЕИМУЩЕСТВО КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА.



Sohada davlat-xususiy sheriklik (DXSH) prinsipni joriy qilish. Istiqbolda sohada davlat-xususiy sheriklik yo'nalishlarini aniqlash, mazkur yo'nalishda obyekt va muassasalarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida bosqichma-bosqich tadbirkorlarga taqdim etish, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tashkil etish, saqlash va moliyalashtirishni qisqartirish choralarini ko'riladi. Bunda, DXSH tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirishda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlar yangi turizm bozorlarini o'zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini o'sishi, xorijiy investitsiyalar hajmini ortishiga xizmat qiladi. Umuman olganda yuqorida qayd etib o'tilgan rejalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda turizm sohasida zamonaviy yo'nalishlarni yo'lga qo'yish, xorijiy turistlar sonini ortishi, ichki turizmni rivojlanishi va turistlarning tashrif geografiyasini kengayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан <https://lex.uz/ru/docs/4143186>.
2. Агешкина Н.А., Бельянская А.Б., Холкина М.Г. Комментарий к Федеральному закону от 24 ноября 1996 г. N 132-ФЗ «Об основах туристской деятельности в Российской Федерации» (под ред. Л.Л. Руденко). - Специально для системы ГАРАНТ, 2017 г.
3. R.W. Butler. The Concept of a Tourist Area Life Cycle. – London: Canadian Geographer, 1980. – 100 p.
4. D. Pearce. Tourism Today: A Geographical Analysis. – Harlow: Longman, 1987. – 320 p.
5. J. Tribe. The Economics of Recreation, Leisure and Tourism. – London: Routledge, 2011. – 472 p.
6. UNWTO. Tourism Highlights. – Madrid: UNWTO Publications, 2019. – 56 p.
7. WTTC. Travel & Tourism Economic Impact. – London: World Travel & Tourism Council, 2020. – 70 p.
8. [h t t p s : / / b a s e . g a r a n t . ru/403331451/1b93c134b90c6071b4dc3f495464b753/9E%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf](https://h.t.t.p.s.://b.a.s.e.g.a.r.a.n.t.ru/403331451/1b93c134b90c6071b4dc3f495464b753/9E%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%9E%D0%A2%D0%90.pdf)
9. Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida https://uza.uz/oz/posts/ichki-turizm-xizmatlarini-diversifikatsiya-qilishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-tog'risida_369542
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзияевнинг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5048-сонли ““Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурларини амалга ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.Lex.uz.
11. УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан <https://lex.uz/ru/docs/4143186>
12. PF-5611-сон 05.01.2019. O'zbekis ton Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
13. <https://www.peuni.cz/dokumenty/Proceedings-Conference-Post-COVID-19-tourism.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
